

## Ko'rgazma namoyishida

Erishilgan yutuq va yangiliklardan voqif qilishning o'ziga xos usullaridan biri ko'rgazmalarning tashkil etilishi va namoyish qilinishidir. O'z tashabbusingiz va tashkilotchilingiz ham sinovdan o'tkaziladi unda. Ishtirok etish bamisoli dasturxon yozib mehmon chaqirishga o'xshaydi. O'zingizning va o'zgalarning tab'i, salohiyati bilan oshna bo'lismning ko'rinishidir u, aslida.

2018 yilning 15-17 mart kunlari Savdo-Sanoat Palatasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif Vazirligi, «Expocontact» kompaniyasi o'n sakkizinch xalqaro «Ta'lif va Mutaxassislik» ko'rgazmasi tashkil qilindi.

Ushbu ko'rgazmada Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Marketing bo'limi" jamoasi ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o'quv yurtlarida, zamonaviy metodikalar asosida ta'lif berishlari bilan tanishtirish, o'zaro tajriba almashishga ko'maklashish, shuningdek, yoshlarga va keng ommaga o'zlarini qiziqtirgan mutaxassisligi bo'yicha bilim olishlari uchun, o'quv yurtlarini tanlashga yordam berish ko'rgazmaning asosiy maqsadidir.

Ko'rgazmaningo'ziga xos vazifalariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o'quv yurtlarida qaysi mutaxassisliklar bo'yicha ta'lif olishning imkoniyatlari borligi haqida ma'lumot berish;
- Yoshlarda mutaxassislik tanlashga qiziqtirish uyg'otish va shu sohada ta'lif olishga jalb etish;
- Ikkinchi kasb-hunar o'rganish yoki o'z kasbi bo'yicha malakasini oshirish istagida bo'lgan shaxslarga ta'lif olish uchun o'quv yurtini topishga yordam berish;
- O'quv yurtlarini jihozlash uchun ishlab chiqarilgan, texnik vositalar, o'quv-metodologik adabiyotlar, mebel-jihozlar va kompyuterlashtirishning eng oxirgi yutuqlari bilan tanishtirish.



**Marketing bo'limi boshlig'i Rustam Oymatov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**